

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

MAMARAXIMOV BEKZOD ERKINOVICH

ISHCHI KUCHINI TAKROR ISHLAB CHIQRISH VA
BANDLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY
ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации

Content of the Doctoral (DSc) Dissertation Abstract

Mamaraximov Bekzod Erkinovich

Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish va bandligini ta'minlashning nazariy asoslarini takomillashtirish3

Мамарахимов Бекзод Эркинович

Совершенствование теоретической основы воспроизводства рабочей силы и обеспечения занятости 29

Mamarakhimov Bekzod Erkinovich

Improving the theoretical foundations of labor reproduction and ensuring employment57

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works63

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

MAMARAXIMOV BEKZOD ERKINOVICH

ISHCHI KUCHINI TAKROR ISHLAB CHIQRISH VA
BANDLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY
ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.DSc/Iqt1757 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web-sahifasida (www.tsue.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtiriladi.

Ilmiy maslahatchi:

Abdullayev Suyun Artikovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Gafurov Ubaydullo Vaxabovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasulova Dilfuza Valiyevna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kurolov Kobiljon Kulmanovich
iqtisodiyot fanlari doktori

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi iqtisodiyot fanlari bo'yicha ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.01.2021.I.16.03 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil «__» ____ soat ____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100003, Toshkent shahri, I. Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99872) 239-28-72; faks: (99872) 239-01-49, (99872) 239-43-51. e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ - raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99872) 239-88-72; faks: (99871) 239-43-51. e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «__» _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil «__» _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

S.K. Xudoyqulov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

D.S. Nasirxodjayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.d., professor

U.V. Gafurov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon mamlakatlari ishchi kuchini takror ishlab chiqarish va aholi bandligini ta'minlashga ustuvorlik berishni ta'lim tizimini rivojlantirish orqali iqtisodiy rivojlanishga katta hissa qo'shadigan omil sifatida ko'rmoqda. Xorijiy mamlakatlarda ishchi kuchi bozorida faol dasturlarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilgan, ya'ni resurslarning sezilarli qismi faol dasturlar foydasiga (AQSh va Kanadada YaIM 0,4%idan Shvetsiyada 2% gacha) qayta taqsimlanadi va bu bir qator sabablar bilan izohlanadi. Keyingi yillardagi o'zaro bog'liq iqtisodiy va geosiyosiy inqirozlar ishchi kuchini takror ishlab chiqarish uchun noaniq va xilma-xil istiqbolni yaratdi, rivojlangan va rivojlanayotgan iqtisodiyotlar va ishchilar o'rtasidagi tafovutlarni kengaytirdi. Covid-19 pandemiyasi va u bilan bog'liq ta'qiqlardan tobora ko'payib borayotgan iqtisodiyotlar tiklana boshlagan bo'lsa ham, past va past o'rta daromadli mamlakatlar yuqori ishsizlikka duch kelmoqdalar, yuqori daromadli mamlakatlar esa odatda qiyin ishchi kuchi bozorlarini boshdan kechirmoqda.

Jahonda globallashuv sharoitida ishchi kuchi bozori, xususan ishchi kuchini takror ishlab chiqarish va bandligini ta'minlash muammolariga yo'naltirilgan ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Globallashuv sharoitida ishchi kuchi bozoridagi tanqislik va ortiqchalik muammosini hal qilish, yuqori ish haqi va moddiy farovonlikni oshirishga bo'lgan intilish uchun imkoniyat yaratishdek ijobiy mexanizm sifatida qaralmoqda. Chunonchi, mamlakatdagi ishchi kuchi takror ishlab chiqarish va uning sifatini yaxshilash muammosini yumshatish, xorijdan qaytgan emigrantlarning tajriba va ko'nikma bilan kelishi, ularning ishlab topgan daromadlarining ichki investitsiya shaklida sarflanishi, pul o'tkazmalarining qisqa muddatli, uzoq muddatli, makroiqtisodiy va ijtimoiy samaraga ega bo'lishi kabilar mamlakat iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangi O'zbekistonda barqaror iqtisodiyotni ta'minlash, ishchi kuchini takror ishlab chiqarish va bandligini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlash borasida mamlakatimizda ham bir qator islohotlar o'tkazilmoqda-ki, ularning bevosita milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini ta'minlashdagi o'rni beqiyos. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda "Yoshlar – kelajagimiz" Davlat dasturi to'g'risida»gi farmoni kabilar buning yaqqol namunasidir. Hozirda mamlakatimizda 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar 19 milliondan ortiq yoki aholining 55 foizini tashkil qilishini nazarda tutsak, ushbu muassasalar faoliyati natijasida ishchi kuchi bozoriga har yili kirib kelayotgan 1 millionga yaqin yoshlarga sifatli ta'lim berish, kasb-hunarga o'qitish va bandligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2018-yil 27-iyundagi PF-5466-son "Yoshlar – kelajagimiz" Davlat dasturi to'g'risida»gi Farmonlari, 2025 yil 14 fevraldagi PQ-62-son «Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish va bandligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar

to'g'risida", 2022-yil 30-avgustdagi PQ-366-son "Norasmiy bandlik ulushini qisqartirish hamda mehnat resurslari balansini zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 11-avgustdagi PQ-4804-son "Kambag'al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o'qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 7-iyuldagi 279-son "20-ming tadbirkor – 500 ming malakali mutaxassis" dasturini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida", 2021-yil 18-yanvardagi 23-son "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2017-yil 28-oktabrdagi 877-son "Mehnat bozorining joriy va istiqboldagi ehtiyojlarini hisobga olib ish o'rinlarini tashkil etish va kadrlar tayyorlash davlat buyurtmasini shakllantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi ma'lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishiga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi¹. Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish va bandligini ta'minlash bo'yicha tadqiqotlar jahonning yetakchi oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va nufuzli xalqaro tashkilotlari, jumladan, International Labour Organization (<https://www.ilo.org>) Equal Employment Opportunity Commission (EEOC), American council on education (<https://www.acenet.edu>), Bureau of Labor Statistics, The Bureau of Labor Statistics, Local Employment Dynamics, The Union Membership and Coverage Database, Current Population Survey (CPS), Andrew Young School of Policy Studies, Georgia State University, Trinity University, IZA - Institute of Labor Economics (<https://www.iza.org/>), Manchester universiteti (<https://www.manchester.ac.uk>) Tenesse universiteti (<https://tennessee.edu>) kabi muassasalar tomonidan amalga oshirilmogda.

Dunyoda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida ishchi kuchini takror ishlab chiqarish maqsadida ishchi kuchi bozorining global tendensiyalari haqida ma'lumot berib, mamlakatlar orasida bandlik darajasidagi farqlarni tahlil qildi (OECD tadqiqotlari: Ikki yillik "Employment Outlook" hisoboti); iqtisodiy o'sish bilan bandlik o'rtasidagi munosabatlar ko'rib chiqish orqali ularga investitsiyalar sarflanishi, innovatsiyalar kiritishining ishsizlikka ta'siri o'rganilgan (World Bank); globallashuvning ishchi kuchi hayotiga ta'siri hamda mehnat sharoitlari yaxshilanishi to'g'risida (International Labour Organization), ishchi kuchi bozoriga kirib keluvchilarning asosiy qismini yoshlar tashkil etishini inobatga olgan holda,

¹ Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi www.worldbank.org; www.worldbankgroup.org; <http://www.imf.org>; <http://www.miga.org>; <https://unecon.ru>; <https://hsem.susu.ru/es>; <http://www.fa.ru>; www.mgu.ru; www.ey.com; www.deloitte.com; <https://tfi.uz/en>; <http://tsue.uz>; <https://ifmr.uz> va boshqa manbalar asosida tayyorlangan

mahallalardagi ishsiz yoshlarni ishchi kuchi bozorida talab yuqori bo'lgan zamonaviy kasb-hunarlariga o'qitish orqali tadbirkorlikka tayyorlash hamda qayta tayyorlashda tadbirkorlik faoliyatini boshlashlari uchun imkoniyatlar yaratishda ko'maklashish (O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi) borasidagi tadqiqotlar keng ko'lamda olib borilmoqda.

Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish va bandligini ta'minlashning nazariy asoslarini takomillashtirishga oid jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida: ishchi kuchini takror hosil qilish va ayollar mehnatidan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslari tadqiq etilgan (Humboldt University of Berlin, Germaniya); Aholi farovonligi va mehnat kuchining takror ishlab chiqarilishi: takror ishlab chiqarish tarkibiga davlat siyosatining ta'siri to'g'risida (Kvinslend universiteti, Avstraliya); Aholi farovonligi va mehnat kuchining takror ishlab chiqarilishi: takror ishlab chiqarish tarkibiga davlat siyosatining muhimligi asoslab berilgan (University of Copenhagen, Daniya); inson resurslarini boshqarish va inson kapitalini takror ishlab chiqarishni tashkil etish asoslangan (G.V. Plexanova nomidagi Rossiya davlat iqtisodiyot universiteti, Rossiya); mehnat bozori, mehnat iqtisodiyoti; nazariya va amaliyot, ishchi kuchini takror ishlab chiqarish va bandligini ta'minlash (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zbekiston); shakllanayotgan bozor iqtisodiyotida inson omili va uni faollashtirish yo'llari (O'zbekiston milliy universiteti, O'zbekiston) bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ishchi kuchi bozori va bandlikning turli tomonlari ko'plab xorijlik olimlar, jumladan, A.Smit, D.Rikardo, K.Marks, A.Marshall, J.M.Keynes, M.Fridmen, T.Veblen, E.Xansen, P.Samuelson va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan². Xorijiy adabiyotda A.Sen, M. ul Haq, S.Alkir, S.Fukuda-Parr, G.Ranis, F.Styuart, I.Robins, S.Anand va boshqa olimlarning asarlari inson salohiyatini o'rganilgan³.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi davlatlarida inson salohiyati, inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirishning tashkiliy shakllari bo'yicha S.G.Strumilin, A.E.Kotlyar, D.N.Karpuxin, V.A.May, R.I.Kapelyushnikov, A.I.Dobrinin, S.A.Dyatlov, V.E.Saktoev, V.S.Bajenova, M.M.Kritskiy, N.Ya.Siniskaya, G.B.Solnseva, G.L.Smolyan I.V.Soboleva kabi olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar⁴. Shuningdek, Ye.N.Dubrovskaya, A.A.Ananskix, L.P.Goryun,

² Смит, А. Исследование о природе и причинах богатства народов. М.: – Эксмо, 2016. – 1056 с.; Marshall A. Industry and trade. – Vani Prakashan, 2015. – 556 p.; Keynes J.M. The general theory of employment, interest, and money. – Springer, 2018. – 404 p.; Hayek F.A. The constitution of liberty: The definitive edition. – Routledge, 2013. – Т. 17. – 596 p.; Friedman M. The capitalism and freedom. – Princeton university press, 2018. – 258 p.; Т.Веблен. Инженеры и ценовая система. М.: Изд. дом ГУ-ВШЭ, 2018. – 112 с.; Хансен Э. Экономические циклы и национальный доход. М: Финансовая Академия, 2008. – 466 с.; Пол Э. Самуэлсон, Вильям Д. Нордхаус. Экономика. – Издательство: Вильямс, 2015. – 1360 с.;

³ Qarang: Alkire, S. Development: A Misconceived Theory Can Kill / S. Alkire, W. Christopher, Morris, A. Sen. - Cambridge: Cambridge University Press, 2010. - P. 191 - 120.; Alkire, S. Human Development; Definitions, Critiques, and Related Concepts / S. Alkire. - ОPHI working paper № 36. - 2010. - 56 p.; Robeyns, I. The capability

⁴ Струмилин, с. Г. Проблемы экономики труда / С. Г. Струмилин М.: Наука. - 1982. - С.65; Котляр, А. Э. Рабочая сила в СССР / А. Э. Котляр // - М.: Мысл, 1967. - С.35. 2; Карпухин, Д. Н. Человеческий фактор в концепции ускорения / Д. Н. Карпухин // Трудовой потенциал советского общества, сб. мат-лов Всесоюз. науч.- практ. конф. / Суздал. - М., 1987. С 10-17.; Май, В. А. Экономика и власть. Политическая история экономической реформы в России, 1985-1994 гг. / В. А. Май. - М.: Дело Лтд, 1995. - С. 7.; Капелюшников, Р. И. Современные буржуазные концепции формирования рабочей силы / - М.: Наука, 1981.-С. 15.; Добрынин, А. И., Дятлов С. А. Человеческий капитал России; проблемы эффективного использования / А. И. Добрынин, Дятлов С. А. // Новые приоритеты в реформировании экономики России: Сб. науч. тр. / Ред. кол. М. М.

S.N.Pshenichnikova, L.R.Xalitova, Yu.A.Perekarenkova, V.M.Kozirev, S.V.Kravsevich va boshqalar ishchi kuchini takror ishlab chiqarish borasida tadqiqotlarini amalga oshirishgan⁵, lekin ularning tadqiqotlarida ish haqi darajasining ahamiyatini ko'rsatib berishmoqchi bo'lishgan.

O'zbekistonda ishchi kuchi bozorining samarali rivojlanishi va ishsizlikni kamaytirish Q.Abdurahmonov, Sh.Xolmo'minov va K.Xomitov, Z.Xudoyberdiyev, M.Xolmuxamedov, D.Nasimov va boshqa iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq qilingan⁶.

Biroq mazkur tadqiqotlarda ishchi kuchi bozorining shakllanishi va rivojlanishi, ularning salohiyati va imkoniyatlarini, iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyatini oshirish borasidagi ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish ustuvor tadqiqot yo'nalishlaridir.

Ishchi kuchini takror hosil qilish yoki takror ishlab chiqarish borasidagi nazariy yondashuvlar bo'yicha mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan Sh.Shodmonov, U.G'afurov, M. Mirzakarimova, H.P.Abulqosimov, M.X.Ashurova, N.K.Sodiqov, S.Dusmatov, B.Tagayev va boshqalar tomonidan fikrlar bildirilgan⁷.

Критский [и др.]. - СПб, 1996. С. 5 – 17; Формирование и динамика человеческого капитала транзитивной экономики: монография / Е. Д. Цыренова, В. Е. Сактоев, В. С. Баженова. - Улан-Удэ; [б. и.], 1999.-201 с.; Илинский, и. В. Инвестиции в будущее: образование в инновационном воспроизводстве / И. В. Илинский // СПб.: Изд. СПбУЭФ, 1996. - С. 131.; Критский, М. М. Человеческий капитал в инновационной экономике / М. М. Критский // Новые приоритеты в реформировании экономики России: Сб. науч. тр. / Ред. кол. М. М. Критский [и др.]. - СПб, 1996. С. 20; Синицкая, Н. Я. Развитие человеческого потенциала - цел и главное условие социально-экономического развития регионов / Н. Я. Синицкая // Вестник Национального комитета «Интеллектуальные ресурсы России». - 2006. - № 4. - с. 49 - 55.; Солнцева Г.Б. Смолян Г.Л. Человеческий потенциал; размышления о содержании понятия. Человеческий потенциал: опыт комплексного подхода. Под ред. И.Т. Фролова. - М.: Эдиториал УРСС, 1999. - 176 с.; Соболева И.В. Человеческий потенциал российской экономики: проблемы сохранения и развития. - М.; Наука, 2007.- С.12.

⁵ Дубровская Е.Н. Особенности воспроизводства рабочей силы в современной экономической системе России / Е.Н.Дубровская // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Челябинск, 2012. 26 с.; Ананских А.А. Социальные проблемы воспроизводства рабочей силы / А.А. Ананских // Вестник МичГАУ, 2012;(4):139–142.; Горюн Л.П. Воспроизводство рабочей силы и основные направления его совершенствования в Российской Федерации / Л.П. Горюн // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Орел, 1998; 23 с.; Пшеничникова С.Н. О некоторых аспектах воспроизводства рабочей силы и формирования ее стоимости / С.Н. Пшеничникова // Проблемы современной экономики. 2011;2(38):71–75.; Халитова Л.Р. Оплата труда как инструмент управления воспроизводством рабочей силы / Л.Р. Халитова // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Уфа, 2010; 24 с.; Перекаренкова Ю.А. Основные факторы воспроизводства рабочей силы и формирования оплаты труда в экономике: некоторые историко-теоретические подходы / Ю.А. Перекаренкова, А.Я. Троцкий, В.И. Крывка и др. // Наука сегодня: опыт, традиции, инновации. 2019;17–19.; Козырев В.М. Узловые проблемы воспроизводства рабочей силы в современной России Ч. 1 / В.М. Козырев // Вестник РМАТ, 2016;(4):27–37.; Кравцевич С.В. Проблемы качества воспроизводства рабочей силы на отечественном рынке труда: монография / С.В. Кравцевич. Москва: РУСАЙНС, 2020; 52 с.

⁶ Q.X.Abdurahmonov. "Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot". Darslik. – T.: "Fan", 2019.; Xolmo'minov Sh.R. (2014) Qishloq mehnat bozorining shakllanishi va rivojlanishi hamda ularni modellashtirish (Monografiya). –T.: Fan va texnologiya. 2014.; Xomitov K.Z. (2012) O'zbekiston Respublikasi qishloq mehnat bozorining samarali rivojlanishi muammolari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –T.: O'ZR FA Iqtisodiyot instituti, 2012; Xudoyberdiyev Z.Ya. Tadbirkorlik va ishga joylashtirish texnologiyasi. O'quv qo'llanma. – T.: ILMZIYO.; 2016; Xolmuxamedov M.M. (2011) Mehnat bozoridayoshlarning ish bilan bandligini tartibga solish va unitakomillashtirish (Samarqand viloyati misolida). Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –Samarqand.; Nasimov D.A. Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish tizimini takomillashtirish (Samarqand viloyati misolida). Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –Samarqand 2011.;

⁷ Shodmonov Sh., G'afurov U., Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2015. Abulqosimov H.P., M. Mirzakarimova. O'zbekistonda bandlik tarkibini takomillashtirish muammolari // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2016 yil; Ashurova M.X. Ishchi kuchi sifati va raqobatbardoshligini oshirish yo'llari // jurnal Iqtisod va moliya / Экономика и финансы. 2014, 9; Sodiqov N.K.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti OT-F1-155. "Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash jarayonida xarajatlar miqdorini kamaytirish, tarkibini takomillashtirishning fundamental (nazariy) asoslarini ishlab chiqish" mavzusidagi fundamental (2017-2020-yy.) loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ishchi kuchini takror ishlab chiqarish va bandligini ta'minlashning nazariy asoslarini takomillashtirish bo'yicha **ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar** ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ishchi kuchini takror ishlab chiqarish va bandligini ta'minlash to'g'risidagi nazariyalar evolyutsiyasining rivojlanish holatini tahlil qilish;

ishchi kuchini takror ishlab chiqarishning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati ochib berish va amal qilish holatini o'rganish;

ishchi kuchini takror ishlab chiqarish shart-sharoitlari, demografik va ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini o'rganish;

hozirgi davrda ishchi kuchini takror ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

ishchi kuchini takror ishlab chiqarishda ta'lim tizimining o'rnini aniqlash va ta'lim klasterlarini tashkil qilishning ahamiyatini tadqiq etish;

mamlakatimizda ishchi kuchi bandligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni o'rganish orqali ularni takomillashtirish borasida taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

ishchi kuchini takror ishlab chiqarish va yoshlar bandligini ta'minlashning ahamiyatini yoritib berish;

ishchi kuchini takror ishlab chiqarish va bandligini ta'minlashning iqtisodiy o'sishga ta'sirini o'rganish;

ishchi kuchini takror ishlab chiqarish va bandligini ta'minlashning xorij tajribasi o'rganib, tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

xorijiy migrantlarning ishchi kuchi resurslarini takror ishlab chiqarishdagi ahamiyatini yoritish;

ishchi kuchini takror ishlab chiqarish va bandligini ta'minlashning rivojlanish istiqbollari ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekistonda ishchi kuchini takror ishlab chiqarish va bandligini ta'minlashning nazariy asoslarini takomillashtirish bilan bog'liq jarayonlar tanlangan.

Tadqiqotning predmeti ishchi kuchini takror ishlab chiqarish va bandligini ta'minlash jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot davomida ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, ikki tomonlama yondashuv, iqtisodiy-matematik modellashtirish, korrelyatsion, regression tahlil, omilli tahlilga asoslangan tarkibiy tuzilmaviy modellashtirish (ISM) usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Ishchi kuchining sifatini oshirishda ta'lim tizimining roli // Zamonaviy ta'lim / Современное образование журналы. 2015, 5; С.Дусматов, Б.Тагаев. Неформальная занятость на рынке труда Узбекистана: состояние и пути её снижения // ИҚТISOD VA MOЛIYA / ЭКОНОМИКА И ФИНАНСЫ 2019, 9(129)

nazariy-uslubiy yondashuvga ko‘ra “ishchi kuchini takror ishlab chiqarish” tushunchasining iqtisodiy mazmuni ijtimoiy ishlab chiqarishni tashkil etish va rivojlantirish uchun talab etiluvchi ishchi kuchi resurslarini miqdor va sifat jihatidan tayyorlash va qayta tayyorlash jarayonlarining uzluksizligi tavsifini kiritish asosida takomillashtirilgan;

uslubiy yondashuvga ko‘ra ishchi kuchini takror ishlab chiqarish jarayonining ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash va iste‘mol fazalari orqali harakati davomida navbatdagi ishchi kuchi guruhining vujudga kelishi ijtimoiy mahsulotni ishlab chiqarish sikllari tavsifiga muvofiqligini ta‘minlash nuqtai nazaridan asoslangan;

uslubiy yondashuvga ko‘ra ishchi kuchini takror ishlab chiqarishning har bir turi iqtisodiy tizimning muayyan davridan kelib chiqqan holda tarkibiy jihatdan (malakasiz, malakali, yuqori malakali, innovatsion takror ishlab chiqarish) hamda toifasiga qarab (qisqartirilgan, oddiy va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish) shakllarining amal qilish holatlari nazariy jihatdan asoslangan;

ishchi kuchi bozoriga kirib keluvchilarning asosiy qismni yoshlar tashkil etishini inobatga olgan holda, mahallalardagi ishsiz yoshlarni ishchi kuchi bozorida talab yuqori bo‘lgan zamonaviy kasb-hunarlariga o‘qitish orqali tadbirkorlikka tayyorlash hamda qayta tayyorlashda tadbirkorlik faoliyatini boshlashlari uchun imkoniyatlar yaratish (kredit va subsidiyalar ajratilishi)da ko‘maklashish taklifi asoslangan;

O‘zbekistonda ishchi kuchini takror ishlab chiqarish jarayonlariga ta‘sir etuvchi omillarning dinamik harakatidagi korrelyatsion-regression bog‘liqlikning ekonometrik modeli asosida 2030 yilga qadar iqtisodiy faol aholi o‘sish darajasining ko‘p variantli prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ishchi kuchini takror ishlab chiqarish va bandligini ta‘minlashning o‘ziga xos xususiyatlari, ularga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar o‘rganilib, muallifning shaxsiy fikri bayon etildi va mavjud nazariy qoidalar chuqurlashtirildi;

ishchi kuchini takror ishlab chiqarish bo‘yicha yangicha uslubiy yondashuv asosida malakasiz, malakali, yuqori malakali, innovatsion tarkiblarga ajratish taklifi ishlab chiqilgan;

xorijiy davlatlarda ishchi kuchi bandligini ta‘minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni o‘rganish orqali ularni mamlakatimizda amalga oshirish borasida ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;

ishchi kuchini takror ishlab chiqarish va yoshlar bandligini ta‘minlashda hozirgi jarayonda qisqarayotgan mutaxassis va ishchi kuchi egalarini qayta tayyorlash, tarmoqlarda modernizatsiyalash natijasida ishsiz qolganlarni shu sohada xizmat ko‘rsatish bilan band qilish, mehnat sharoitlarini yaxshilash, turli imtiyozlar berish orqali ishchi kuchi taklifini maqsadga muvofiq yo‘naltirish zaruriyati ochib berilgan;

ishchi kuchi bozoriga kirib kelayotgan yoshlarni aniqlagan holda ularni bozorda talab yuqori bo‘lgan zamonaviy kasb-hunarga o‘qitish, qayta o‘qitish va tadbirkorlikka yo‘naltirish borasidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

ishchi kuchini takror ishlab chiqarish jarayonlariga ta‘sir qiluvchi omillar o‘rtasidagi korrelyatsion-regression bog‘liqlikning ekonometrik modellari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ularni taniqli iqtisodchi olimlarning ishchi kuchini takror ishlab chiqarish xususidagi

ilmiy-nazariy qarashlarini qiyosiy va tanqidiy tahlil qilish, ilg'or xorij tajribasini o'rganish va umumlashtirish, axborotlar bazasining milliy va xalqaro nufuzli tashkilotlarning rasmiy manbalaridan olinganligi, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining ma'lumotlariga hamda boshqa rasman e'lon qilingan ilmiy manbalar va amaliy ma'lumotlar tahliliga asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ulardan O'zbekiston Respublikasida ishchi kuchini takror ishlab chiqarish va bandligini ta'minlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda, ishchi kuchini shakllantirish va ularning bandligini ta'minlash bo'yicha strategik qarorlar qabul qilishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalardan respublikada ishchi kuchini takror ishlab chiqarish va bandligini ta'minlashning nazariy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda foydalanish, dissertatsiya materiallaridan oliy o'quv yurtlarida "Iqtisodiyot nazariyasi", "Mehnat iqtisodiyot", "Inson resurslarini boshqarish" fanlari bo'yicha o'quv, o'quv-uslubiy materiallarni takomillashtirish hamda o'qitish jarayonida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish va bandligini ta'minlashning nazariy asoslarini takmillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

nazariy-uslubiy yondashuvga ko'ra "ishchi kuchini takror ishlab chiqarish" tushunchasining iqtisodiy mazmuni ijtimoiy ishlab chiqarishni tashkil etish va rivojlantirish uchun talab etiluvchi ishchi kuchi resurslarini miqdor va sifat jihatidan tayyorlash va qayta tayyorlash jarayonlarining uzluksizligi tavsifini kiritish asosida takomillashtirishga oid nazariy va uslubiy yondashuvdan 410 000 - "Biznes va boshqaruv" va 310 000 - "Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar" ta'lim sohalarining barcha ta'lim yo'nalishlari talabalar uchun tavsiya etilgan «Iqtisodiyot nazariyasi», «Iqtisodiyot» nomli darsliklarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 14-avgustdagi 418-sonli hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 18-avgustdagi 356-sonli buyruqlari). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy qilinishi natijasida oliy o'quv yurti talabalarida ishchi kuchini takror ishlab chiqarish hamda ishchi kuchini takror hosil qilish tushunchalari o'rtasidagi farqli jihatlar bo'yicha yanada kengroq nazariy-uslubiy bilim va ko'nikmalar hosil qilish imkoni yaratilgan;

nazariy-uslubiy yondashuvga ko'ra ishchi kuchini takror ishlab chiqarish jarayonining ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash va iste'mol fazalari orqali harakati davomida navbatdagi ishchi kuchi guruhining vujudga kelishi ijtimoiy mahsulotni ishlab chiqarish sikllari tavsifiga muvofiqligini ta'minlashga oid nazariy va uslubiy yondashuvdan 410 000 - "Biznes va boshqaruv" va 310 000-"Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar" ta'lim sohalarining barcha ta'lim yo'nalishlari talabalar uchun tavsiya etilgan «Iqtisodiyot nazariyasi», «Iqtisodiyot» nomli darsliklarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 14-avgustdagi 418-sonli hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 18-avgustdagi 356-sonli buyruqlari). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy qilinishi natijasida oliy o'quv yurti talabalarida

ishchi kuchini takror ishlab chiqarish fazalarining amal qilishi hamda ularning ishlab chiqarish jarayoniga takroriy jalb qilinishi bo'yicha nazariy-uslubiy bilim va ko'nikmalar hosil qilish imkoni yaratilgan;

uslubiy yondashuvga ko'ra ishchi kuchini takror ishlab chiqarishning har bir turi iqtisodiy tizimning muayyan davridan kelib chiqqan holda tarkibiy jihatdan (malakasiz, malakali, yuqori malakali, innovatsion takror ishlab chiqarish) hamda toifasiga qarab (qisqartirilgan, oddiy va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish) shakllarining amal qilish holatlariga oid nazariy va uslubiy yondashuvdan 410 000 - "Biznes va boshqaruv" va 310 000 - "Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar" ta'lim sohalarining barcha ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun tavsiya etilgan «Iqtisodiyot nazariyasi», «Iqtisodiyot» nomli darsliklarini tayyorlashda hamda Kasbiy ko'nikmalar markazlari tinglovchilari uchun dasturlar tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 14-avgustdagi 418-sonli buyrug'i, O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2025-yil 14-apreldagi №01/00-03/10-3398-sonli dalolatnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy qilinishi natijasida oliy o'quv yurti talabalarida ishchi kuchini takror ishlab chiqarishning ishchi kuchining darajasiga qarab turli toifalarga bo'lish kerakligi bo'yicha nazariy-uslubiy bilim va ko'nikmalar hosil qilish imkoni yaratilgan;

ishchi kuchi bozoriga kirib keluvchilarning asosiy qismini yoshlar tashkil etishini inobatga olgan holda, mahallalardagi ishsiz yoshlarni ishchi kuchi bozorida talab yuqori bo'lgan zamonaviy kasb-hunarlarga o'qitish orqali tadbirkorlikka tayyorlash hamda qayta tayyorlashda tadbirkorlik faoliyatini boshlashlari uchun imkoniyatlar yaratish (kredit va subsidiyalar ajratilishi)da ko'maklashish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-avgustdagi PQ-4804-son Qarorining 6-ilovasidagi "Aholi bandligini ta'minlash va ishchi kuchining raqobatbardoshligini oshirish" Dasturini ishlab chiqishda inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2025-yil 14-apreldagi №01/00-03/10-3398-sonli dalolatnomasi, O'zbekiston Yoshlar ittifoqi Markaziy kengashining 2024-yil 12-noyabrdagi 04-13/1048-sonli dalolatnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy qilinishi natijasida mamlakatimizdagi ishchi kuchi bozoriga kirib kelayotgan yoshlarning qaysi kasb-hunarni egallashlari va ushbu sohada tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur imkoniyatlar va moliyaviy mablag'larga ega bo'lish imkoni yaratilgan;

O'zbekistonda ishchi kuchini takror ishlab chiqarish jarayonlariga ta'sir etuvchi omillarning dinamik harakatidagi korrelyatsion-regression bog'liqlikning ekonometrik modeli asosida 2030-yilga qadar iqtisodiy faol aholi o'sish darajasining ko'p variantli prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan "Mamlakat hududlarida aholi daromadlarini oshirish va kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari dasturi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2025-yil 14-apreldagi №01/00-03/10-3398-sonli dalolatnomasi). Mazkur ilmiy takliflarning amaliyotga joriy etilishi natijasida mamlakatimizda kelgusi davrda ishchi kuchi bozorini tartibga solish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsion tadqiqotning asosiy g'oyasi va natijalari ma'ruzalar shaklida 2 ta xalqaro, 9 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida bayon etilgan va ma'qullangan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Mazkur tadqiqot natijalari bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish, shu jumladan, 2 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan jurnallarda 11 ta ilmiy maqola (9 ta mahalliy, 2 ta xalqaro nashrlarda), 7 ta ma'ruza tezislari ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, besh bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Tadqiqot hajmi 186 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiya ishining **kirish** qismida avvalo, ilmiy tadqiqotning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ishchi kuchini takror hosil qilish jarayonini tadqiq etishga bo'lgan nazariy va uslubiy yondashuvlar”** deb nomlangan birinchi bobida Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish va bandligini ta'minlash to'g'risidagi nazariyalar evolyutsiyasi ilmiy jihatdan asoslangan. Ishchi kuchini takror ishlab chiqarishning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va amal qilishi hamda “ishchi kuchini takror ishlab chiqarish” tushunchasiga mualliflik yondashuvi taklif etilgan.

Jarayonga evolyutsion yondashuvlar asosida xorijiy va rus iqtisodiy adabiyotlarida ishchi kuchini takror ishlab chiqarish yoki takror hosil qilish (qarang, 1-jadval) tuzilgan bo'lib, unda turli iqtisodiy maktablar, nazariyalar va tushunchalar vakillarining qarashlari tizimlashtirilgan va ular asosida mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan.

Nazariy tushunchalarni qiyosiy tahlil qilish natijalari asosida ishchi kuchining takror hosil qilish jarayonini quyidagicha ajratish mumkin:

iqtisodiy nazariyaning klassik maktabi ta'limotiga ko'ra ishchi kuchining takror ishlab chiqarilishi ishchilarning ish haqiga bog'liq bo'lib, uning oshishi aholi sonining ko'payishiga olib keladi. Shu paytda ishchi kuchini takror hosil qilish jarayonida sub'ektlar o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlar ko'rib chiqilmagan;

marksistik iqtisodiy nazariyada ishchi kuchini takror ishlab chiqarish deganda nafaqat insonning mehnat qobiliyatini takror hosil qilishgina emas, balki ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlarini takror ishlab chiqarish ham tushunilgan;

inson kapitali nazariyasining rivojlanishi bilan asosiy e'tibor ishchi kuchi resurslarini takror hosil qilish jarayonida bilimlarning rolini o'rganishga qaratiladi, bu birinchi navbatda bilim, tajriba va ko'nikmalarni ishlab chiqarish orqali qayta ishlab chiqarish jarayoniga yo'naltirilgan maqsadli investitsiyalardir.

Ishchi kuchini takror hosil qilishni zamonaviy jarayonini alohida ilmiy maktab doirasida tushuntirish mumkin emas, chunki bu maktablarning nazariy va uslubiy

pozitsiyalari o'rganilayotgan hodisaning faqat ma'lum tomonlarini ochib beradi. Shu munosabat bilan bizning fikrimizcha, ishchi kuchini takror hosil qilish jarayonini o'rganishni tadqiq qilishda, turli yondashuvlarning qarama-qarshiligini emas, balki ilmiy g'oyalarni bir-biri bilan to'ldirish kerak.

1-jadval

Ishchi kuchini takror hosil qilishga oid ilmiy qarashlar evolyutsiyasi⁸

Iqtisodiy maktab vakillari	Ishlab chiqarishni takror hosil qilish tushunchasining mohiyati
Klassik iqtisodiy maktab vakillari	
V. Petti, A. Smit, D. Rikardo	Ishchi kuchining takror hosil qilish aholining takror ishlab chiqarilishi bilan bog'liq bo'lib, ish kuchining qiymati bo'lgan ish haqi miqdoriga bog'liq. Ish haqi ishchining yashashi va ishchi kuchi bozorida uning o'rnini bosadigan bolalarni tarbiyalash uchun zarur bo'lgan mablag'lar qiymatiga asoslanadi.
Marksizm iqtisodiy maktabi	
K. Marks	Ishchi kuchining takror hosil qilish ham aholi sonining ko'payishi, ham mehnat qobiliyatlarining (bilim, malaka, tajriba) rivojlanishi hisobiga sodir bo'ladi. Bunda nafaqat ishchi kuchi, balki ijtimoiy-ishlab chiqarish munosabatlari ham takror ishlab chiqariladi.
Iqtisodiyot nazariyasining neoklassik maktabi - "inson kapitali nazariyasi"	
T. Shults, G. Bekker, Ya. Mintser, M. M. Kritskiy, S.A. Kurganskiy, A. I. Dobrinin, S. A. Dyatlov	Ish kuchining takror hosil qilish jarayon sifatida taqdim etiladi firmalar, tarmoqlar va xalq xo'jaligining samarali faoliyati uchun zarur bo'lgan insonning mehnat qobiliyatini (bilim, ko'nikma, malaka) takror ishlab chiqariladi. Mehnatni takror hosil qilish xarajatlari iste'mol xarajatlari sifatida emas, balki kelajakda daromad keltirishi mumkin bo'lgan investitsiyalar (ta'lim, bolalarni tarbiyalash, sog'liqni saqlash, qidiruv xarajatlari) sifatida qaraladi.
O'zbekistonlik iqtisodchi olimlari "Ishchi kuchini takror hosil qilish nazariyasi"	
Sh.Shodmonov U.Gafurov, T.Jurayev M.Mirzakarimova	Ishchi kuchini takror hosil qilish yoki uni takror ishlab chiqarish deganda eng avvalo ishchining mehnat qobiliyatini qayta tiklashi, ya'ni uning ovqatlanishi, kiyinishi, dam olishi va madaniy hordiq chiqarishi tushuniladi. Bu esa ishchi uchun oila, uy-joy va boshqa shart-sharoitlar yaratilishi bilan bog'liqdir.
Abulqosimov H., Ashurova M. ⁹	Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish ijtimoiy ishlab chiqarishni takror ishlab chiqarishning muhim tarkibiy qismi bo'lib, ijtimoiy mahsulotni va iqtisodiy munosabatlarni takror ishlab chiqarish bilan chambarchas bog'liq ravishda amalga oshiriladi.
Sodiqov N.K. ¹⁰	Ishchi kuchining uzluksiz amal qilishi uning uzluksiz takror ishlab chiqarilishini ko'zda tutadi. Bunda insonni takror ishlab chiqarish uning ishlab chiqaruvchi kuchlari hamda uning shaxsini takror ishlab chiqarish ko'rinishida namoyon bo'lishiga asoslanish lozim.
Mualliflik ta'rifi	Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish – ishlab chiqarishning amal qilishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan ishchi kuchi resurslarini (kadrlarni) tayyorlash va qayta tayyorlash jarayonlarining to'xtovsiz amalga oshirilishidir

⁸ Muallif tomonidan ilmiy adabiyotlarni o'rganish natijasida tuzilgan

⁹ Abulqosimov H.P., Ashurova M.X. Ishchi kuchi sifati va raqobatbardoshligini oshirish yo'llari // jurnal Iqtisod va moliya / Экономика и финансы. 2014, 9

¹⁰ Sodiqov N.K. Ishchi kuchining sifatini oshirishda ta'lim tizimining roli // Zamonaviy ta'lim / Современное образование журнал. 2015, 5

Muallif tomonidan yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda “Ishchi kuchini takror hosil qilish” hamda “Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish” tushunchalarining farqli jihatlarini ajratib berishga harakat qilingan (qarang: 2-jadval).

2-jadval

“Ishchi kuchini takror hosil qilish” hamda “Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish” tushunchalarining farqli jihatlarini¹¹

Ishchi kuchini takror hosil qilish	Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish
Har bir inson (ishchi kuchi) tomonidan amalga oshiriladi	Ma'lum bir muassasalar tomonidan amalga oshiriladi
Oziqlanish orqali takror hosil qilinadi	O'qitish (o'rgatish) orqali takror ishlab chiqariladi
Har kuni taqsimlanadi va qayta taqsimlanadi	Ma'lum bir davrda (masalan 1-7 yil) taqsimlanadi
Ishchi kuchi ish haqi evaziga o'z qobiliyatlarini sotadi	Bilim va ko'nikmalar ayirboshlanadi
Ishchi kuchiga egasi bo'lgan shaxs undan foydalanishi mumkin	Kasbi yoki mutaxassisligiga qarab yollanadi
To'g'ridan-to'g'ri tovar (xizmat) yaratishda foydalaniladi	Hujjat (diplom, guvohnoma, sertifikat) olgandan keyin foydalaniladi
Qisman o'zgaruvchan (o'zgaruvchan emas)	Zamon talabiga qarab o'zgarib turadi
Juda qisqa muddatda (har kuni) takror hosil qilinadi	O'rta (kasb maktablari) va uzoq (OTM) muddatda takror ishlab chiqariladi.

Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish jarayonining asosiy sub'ektlari davlat, firma va uy xo'jaligi hisoblanadi. Uy xo'jaligi bevosita o'zini namoyon qiladigan iste'mol funksiyasi orqali ishchi kuchini ratsional yoki irratsional faoliyat sub'ektlari sifatida shakllantiradi (qarang: 1-rasm). Korxonada ishchi kuchidan ishlab chiqarish jarayonida imkon qadar samarali foydalanish uchun jalb qiladi. Davlat firma va uy xo'jaligi o'rtasidagi bo'g'inni ifodalaydi va ular o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni tartibga soladi.

“Ishchi kuchini takror hosil qilish” va “Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish” tushunchalari o'rtasidagi farqni quyidagi jihatlar orqali ajratish mumkin:

1. Maqsad:

Ishchi kuchini takror hosil qilish: Bu jarayon ishchi kuchining sifatini va mahoratini oshirishga qaratilgan. U malaka oshirish, o'qitish va yangi ko'nikmalarni rivojlantirish orqali amalga oshiriladi.

Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish: Bu tushuncha ishchi kuchining umumiy miqdorini saqlab qolish yoki oshirishga qaratilgan. Bu jarayon yangi ishchilarni tayyorlash, ularni mehnat bozoriga kirita olish bilan bog'liq.

2. Jarayon:

Ishchi kuchini takror hosil qilish: Bu ko'proq individual rivojlanishga e'tibor beradi. O'qitish va malaka oshirish orqali mavjud ishchilarni yanada samarali ishlashga tayyorlaydi.

¹¹ Muallif ishlanmasi

Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish: Bu tizim darajasida amalga oshiriladi va demografik o'zgarishlar, iqtisodiy sharoitlar va ijtimoiy talablar asosida rejalashtiriladi.

3. Natija:


Ishchi kuchini takror hosil qilish: Natijada ishchilarning malakasi, bilimlari va ko'nikmalari oshadi, bu esa ularning ish samaradorligini yaxshilaydi.

Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish: Natijada mehnat bozorida yangi mutaxassislar paydo bo'ladi, bu esa iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlaydi.

4. Vaqt davomiyligi:

Ishchi kuchini takror hosil qilish: Qisqa muddatli jarayon sifatida ko'rilishi mumkin; bu tez-tez amalga oshiriladigan treninglar yoki kurslar bilan bog'liq.

Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish: Uzun muddatli jarayon bo'lib, demografik tendensiyalar va ijtimoiy o'zgarishlarga bog'liqdir.



1-rasm. Ishchi kuchi resursining takror ishlab chiqarilishi¹²

Ilmiy adabiyotlarda "takror ishlab **chiqarish**" tushunchasi ijtimoiy ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lib, doimiy ravishda ko'rib chiqiladigan va uning

¹² Muallif ishlanmasi


yangilanishining uzluksiz oqimi sifatida tadqiq etiladi¹³. Iqtisodiy tizimning mavjud bo'lishi uchun resurslar, ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchi faqat ishlab chiqarishning alohida elementlari sifatida emas, balki iqtisodiy munosabatlar sifatida ham takror ishlab chiqarilishi zarur. Shuning uchun, iqtisodiy kategoriya sifatida takror ishlab chiqarish ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining doimiy takrorlanishini, uzluksiz yangilanishini ifodalaydi, ishchi kuchining takror ishlab chiqarish bilan birga keladi.

Ishchi kuchi aylanmasining boshlang'ich nuqtasi ishchi kuchi ishlab chiqaradigan uy xo'jaliklari hisoblanadi. Tovarlar va xizmatlarni, shu jumladan ta'limni iste'mol qilish jarayonida sog'lom bola tug'ilishi uchun sharoitlar yaratiladi, uning ta'limi, xususiyatlari va qobiliyatlari shakllanadi va kelajakdagi ishchi kuchi rivojlantiriladi.

Dissertatsiyaning **"Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish va bandligini ta'minlashning uslubiy jihatlari"** deb nomlangan ikkinchi bobida ishchi kuchini takror ishlab chiqarish shart-sharoitlari, demografik va ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari tahlil etilgan. Hozirgi davrda ishchi kuchini takror ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlari aniqlangan.

Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish jarayonida taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilishning doimiy uzluksiz takrorlanishi ishchi kuchining takror ishlab chiqarish mazmunini tashkil etadi.

Shunday qilib, ishchi kuchini takror ishlab chiqarish jarayoni o'z ichiga quyidagi bosqichlarni oladi: "ishlab chiqarish", "taqsimlash", "almashinuv" va "iste'mol" (qarang: 2-rasm).



2-rasm. Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish fazalari¹⁴

Ishchi kuchining "ishlab chiqarish" bosqichi quyidagilarni o'z ichiga oladi: aholining tabiiy ko'payishi, mehnat qobiliyatining shakllanishi, shaxsning intellektual, jismoniy va ma'naviy qobiliyatlarini rivojlantirish. Ushbu bosqichda ishchi kuchining miqdoriy va sifat xususiyatlari belgilanadi. Jarayonga sarflangan mablag'ni qaytarish uchun ishchilarning jismoniy va ruhiy kuchini ishlab chiqarish, ishchilar va ularning oilalarini yashash vositalari, moddiy va ma'naviy ne'matlar bilan ta'minlash kerak. Busiz ishlab chiqarish va takror ishlab chiqarish jarayoni

¹³ Большая Советская Энциклопедия / Гл. ред. А. М. Прохоров. - М.: 1975. - В 30-ти томах, Т. 20. - 608 с.


¹⁴ Muallif ishlanmasi

mumkin emas, xuddi iste'mol qilinadigan ishlab chiqarish vositalarini takror ishlab chiqarishsiz ham mumkin emasdek.

Ishchi kuchini "taqsimlash" va "ayirboshlash" bosqichi ishchi kuchi taklifining bandlik turlari bo'yicha sohalar, tarmoqlar va hududlarda taqsimotdan iborat. Ishchi kuchining tarmoq va hududiy taqsimlanishiga hududiy va ichki ishchi kuchi bozoridagi talab va taklif, fan va texnikaning rivojlanish darajasi, ijtimoiy, shu jumladan, ijtimoiy va mehnat munosabatlarining xarakteri sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi.

Taqsimlash vositasi bu – ishchi kuchi bozoridir. Shuningdek, u bandlikka ko'maklashuvchi tashkilot vazifasini bajaradi, ya'ni, tasarruf etish, nazorat qilish, foydalanish va boshqarish huquqini xodimdan ish beruvchiga o'tkazish, evaziga ish haqi kafolatlarini olish. Bu bosqichda mehnatga layoqatli aholi bandligi ta'minlanadi.

Ishchi kuchini "iste'mol qilish" bosqichida insonning mehnat faoliyati jarayonida jismoniy va ma'naviy mehnat qobiliyatlari amalga oshiriladi. Shunday qilib, band bo'lganlarning mehnat resurslarini takror ishlab chiqarish uning barcha bosqichlarini bosib o'tadi. Ishsiz ishchi kuchini takror ishlab chiqarish, ya'ni, potentsial mehnat qobiliyati deformatsiyalangan: taqsimlash, tovar ayirboshlash va foydalanish bosqichlari mavjud emas, ishchi kuchini tayyorlash va shakllantirish bosqichi esa qo'llab-quvvatlovchi rejimda, to'la bo'lmagan shaklda amalga oshiriladi.



3-rasm. Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish ko'rinishi¹⁵

¹⁵ Muallif ishlanmasi

Bandlar ishchi kuchini takror ishlab chiqarishning barcha bosqichlarini bosib o‘tadi. Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish esa ishsizlarni ya’ni potensial ishlash qobiliyatining shaklini o‘zgartiradi: taqsimot, tovar ayirboshlash, foydalanish bosqichlari yo‘q bo‘lib, ishchi kuchini kasbga tayyorlash va shakllantirish bosqichlarini qo‘llab-quvvatlash rejimida, to‘liqsiz shaklda amalga oshiriladi (qarang: 3-rasm).

Jami ishchi kuchining sifat parametrlarini tavsiflovchi eng muhim mezon ishchi kuchining kasbiy va malakaviy tarkibi hisoblanadi. Ta’lim darajasi va mehnat faoliyati mazmunidagi farqlarga ko‘ra, ishchi kuchi quyidagi to‘rtta asosiy toifaga bo‘linadi (qarang: 3-jadval):

3-jadval

Ishchi kuchi tarkibi va uning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar¹⁶

Ishchi kuchi toifasi	Tayyorgarlik darajasi	Mehnat mazmuni	Ishchi kuchi shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar
Malakasiz	ta’limga ega emasligi yoki boshlang‘ich darajadagi ta’lim	muntazam, doimiy jarayonlarni amalga oshirish, jismoniy va qo‘l mehnati	geosiyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, yashirin iqtisodiyot
Malakali	o‘rta ta’lim	mavjud texnologiyalardan foydalangan holda operatsiyalarni amalga oshirish	moddiy-texnikaviy, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot
Yuqori malakali	Oliy va o‘rta ta’lim	Mavjud texnologiyalardan modifikatsiya qilgan holda faoliyatni tashkil qilish, va ishlab chiqarishni tashkil etish	tashkiliy va boshqaruv
Innovatsion	Oliy ta’limdan keyingi ta’lim, oliy va o‘rta ta’lim	intellektual jihatdan to‘yingan mehnat, texnologik jihatdan bog‘liq kasblarni rivojlanish va innovatsiyalarni kiritish	globallashuv, integratsiya darajasi, xalqaro institutlari, institutsional, innovatsion

Dissertatsiyaning **“Ishchi kuchini takror ishlab chiqarishda ta’lim tizimining ahamiyati”** deb nomlangan uchinchi bobida mamlakatimizdagi ishchi kuchi bozoriga kirib keluvchilar asosan yoshlar ekanligini inobatga olgan holda ularni tarbiyalash maqsadida ishsiz yoshlarni ishchi kuchi bozorida talab yuqori bo‘lgan zamonaviy kasb-hunarlariga o‘qitish orqali ularni tadbirkorlikka o‘qitish hamda qayta o‘qitish orqali ularning bandligiga ko‘maklashish borasida fikr-mulohazalar keltirilgan.

2024-yilning **“Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”** deb e’lon qilinishi va bu bo‘yicha davlat dasturining ishlab chiqilishi natijasida nafaqat maktablarda, litseylarda, texnikumlar, kasb-hunar maktablari va oliy ta’lim muassasalarida, balki har bir oilaning hayotida zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalari, raqamli hamda keng formatli telekommunikatsiya aloqa vositalari, Internet

¹⁶ Muallif ishlanmasi

tizimini tatbiq etish, o'zlashtirish va yanada rivojlantirish oldimizga qo'yilgan asosiy maqsadlardan biri bo'lib qoldi.

Ko'rsatilgan sabablar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi bitiruvchilarining qancha miqdori ishchi kuchi bozoriga taklif etilishini aniq prognoz qilish imkonini bermas ekan, bu jarayonning statistikasi va monitoringini izchil yuritish orqaligina nazorat qilib, boshqarib borish mumkin. Bu jarayonga tortiluvchi bitiruvchi yoshlarning aksariyat qismi kasb-hunar kollejlari tugatgan kichik mutaxassislarni tashkil etganligi sababli, ushbu muammo O'zbekiston Respublikasi davlat ijtimoiy siyosatining dolzarb muammosi sanaladi.

Ishchi kuchini takror ishlab chiqarishni sifat jihatidan talab darajasiga yetkazishning ilk bosqichi bo'lib umumta'lim maktablari hisoblanadi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ta'lim borasidagi islohotlar tufayli umumta'lim maktablarining 10-11-sinflaridagi ta'lim bosqichma-bosqich o'rta maxsus, kasb-hunar o'quv yurtlaridagi ta'lim bilan almashtirildi. Respublikamizda 2010-2011 o'quv yilida 9806 ta umumta'lim maktablari faoliyat yuritgan bo'lib, 2022-2023 o'quv yilida bunday maktablar soni 10522 taga yetdi (4-jadval).

4-jadval

Ta'lim tizimi asosiy ko'rsatkichlarining o'zgarish dinamikasi (o'quv yili boshida)¹⁷

Ko'rsatkichlar	Jami 11-sinf bitiruvchilari, nafar (Malakasiz)	O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi bitiruvchilari, nafar (Malakali)	Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari, nafar (Yuqori malakali)	Tayanch doktorantura institutlarida tahsil oluvchilar soni (Innovatsion)
2010/ 2011	10559	415322	76379	195
2011/ 2012	8253	443287	86255	1249
2012/ 2013	3930	518766	60925	1163
2013/ 2014	0	505461	60524	1036
2014/ 2015	0	498058	67643	1389
2015/ 2016	0	482163	66290	1370
2016/ 2017	0	478362	64133	1632
2017/ 2018	0	457015	67448	1764
2018/ 2019	280324	454931	70325	2247
2019/ 2020	454333	468809	70793	2674
2020/ 2021	442893	177654	83905	3880
2021/ 2022	388762	46052	103898	5747
2022/ 2023	387001	44607	102381	7323

Ishchi kuchi bozoridagi kon'yunkturaning tez o'zgaruvchanligi bir qator tadbirlarni doimiy o'tkazishni taqozo etadi, bu tadbirlar ta'lim sohasida:

- a) ishchi kuchi bozori to'g'risidagi axborotning bo'lishini ta'minlaydi;
- b) strategik menejment faoliyatining ishlab chiqilishiga asos yaratadi.

¹⁷O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Oliy ma'lumotli yuqori malakali mutaxassislarni ishchi kuchi bozoridagi ehtiyoj darajasida tayyorlash hamda malakasini oshirish uchun oliy ta'lim muassasalari va ish beruvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yilishi lozim. Mazkur hamkorlik quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

1) mutaxassislarni hududiy talabni hisobga olgan holda korxonalar buyurtmasi asosida tayyorlash;


2) buyurtma bo'yicha tayyorlangan mutaxassislarni to'liq ish joyi bilan ta'minlash;

3) mutaxassislarning ta'lim olish jarayonida amaliyot bilan aloqasini ta'minlash.

Yuqoridagi uch vazifa natijasida mutaxassislarning iste'molchisi aniq bo'lib, ish o'rni kafolatlanadi va ularning kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirish imkoniyati yaratiladi.

Yoshlarni birinchi marta ishchi kuchi bozoriga kirib kelayotgan bitiruvchilarni mehnat bozoriga tayyorlash bo'yicha rivojlangan davlatlar tajribasi ham o'rganildi. Jumladan, Yevropada yoshlar uchun 3000 ga yaqin virtual korxonalar real korxonalar sifatida faoliyat yuritmoqda: direktori, buxgalteriyasi, menejerlari bor, hujjatlari yuritiladi, har bir xodimning ish vaqti hisobga olinadi, ishiga baho beriladi va ish haqi to'lanadi.

Yoshlar bunday firmalarda 13 haftaning 3-haftasida virtual korxonaning real analogida stajirovkada bo'ladi. Stajirovkani muvaffaqiyatli tugatganlarga 13 haftalik ish staji hisoblanadi. Ish haqi mehnat organlari tomonidan to'lanadi. Odatda bunday ishga o'qishni endigina tugatgan tajribasiz yosh mutaxassislar yoki uzoq vaqt ish izlayotgan yoshlar yuboriladi.



4-rasm. Oliy ta'lim muassasalari va korxonalar (tashkilotlar) o'rtasidagi o'zaro hamkorlik modeli¹⁸

¹⁸ Платонова, А. А., Рудзитис Т. А. Взаимодействие рынка труда и рынка образовательных услуг: проблемы и направления // Решет невыеские чтения. – 2017. – №21-2. – С. 570–571.

Ishchi kuchi bozori va ta'lim xizmatlari bozori o'rtasidagi o'zaro aloqa modeli 4-rasmda keltirilgan.

Shu bilan birga, bugungi kunda oliy ta'lim sohasini takomillashtirish borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda. Amalga oshirilayotgan asosiy chora-tadbirlar qatorida quyidagi yo'nalishlarni ta'kidlash lozim:

Birinchidan, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish choralari ko'rilmogda. 2024-yilning birinchi yarmida oliy ta'lim sohasidagi vakolatli organ tomonidan TOP-300 ta'limga kiritilgan oliy ta'lim muassasalarining dasturlarini hisobga olgan holda bakalavriat yo'nalishlariga 183 ta malaka talablari ishlab chiqildi va tasdiqlandi. Oltita universitetning 38 ta ta'lim dasturlari xalqaro akkreditatsiyadan o'tgan. Shuningdek, ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish, ta'lim tashkilotlari faoliyatini ilg'or xorijiy tajribalar asosida tashkil etish maqsadida "Ta'lim sohasidagi loyihalar markazi" Loyiha byurosi tashkil etildi. Aynan shu loyiha ofisiga ta'lim sohasida kadrlar salohiyatini oshirish, ta'lim xizmatlari sifatini xalqaro standartlar darajasiga ko'tarish vazifalari yuklangan. Ta'lim sifatini oshirish doirasida Loyiha idorasi tomonidan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, joriy yilda bakalavriat yo'nalishlari 40 foizga (306 tadan 183 taga), magistratura mutaxassisliklari 15 foizga (625 tadan 528 taga) optimallashtirildi. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini raqamlashtirish orqali dekanatlar va boshqa ma'muriy tuzilmalarni optimallashtirish masalasi ko'rib chiqilmoqda.

Ikkinchidan, oliy va kasb-hunar ta'limi muassasalari o'rtasidagi aloqalar mustahkamlanib, ta'lim uzluksizligiga xizmat qilmoqda. Universitetlardagi birinchi va ikkinchi kurs fanlari texnikumlar bilan integratsiya qilinadi. Ta'lim sohasidagi islohotlar doirasida texnikumlar diplomlarini xalqaro standartlarga moslashtirish ko'zda tutilgan. Xususan, texnikumlarni a'lo baholar bilan tamomlagan shaxslarga xalqaro klassifikatorga mos keladigan diplom berish rejalashtirilgan. Bundan tashqari, texnikum talabalari oliy o'quv yurtlarida o'qishni davom ettirish uchun etarli bo'lgan zarur kasbiy malakalarga ega bo'lishlari rejalashtirilgan. Binobarin, texnikum bitiruvchilari ikkinchi yoki uchinchi kursdan boshlab universitetda o'qishni davom ettirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Uchinchidan, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash jarayoniga kadrlar buyurtmachilarining faol jalb etilishi mavjud. Shu maqsadda 5 mingdan ortiq kasblar uchun malaka standartlari ishlab chiqilmoqda. Buning uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan ish beruvchilar bilan birgalikda zarur malaka talablarini ishlab chiqadigan Milliy malaka tizimini rivojlantirish institutini tashkil etish rejalashtirilmoqda.

Respublikamiz hududlarida bandlikka ko'maklashuvchi markazlariga murojaat qilgan va mavjud ish o'rinlariga kasbi va mutaxassisligi to'g'ri kelmaydigan kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha bir qancha tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikda ishlarni amalga oshiradi.

Jumladan, xalq ta'limi tizimi, ularning hududlardagi boshqarma va bo'limlari yordamida kadrlarni o'qitishni tashkil qiladi hamda kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash markazlari ko'magida ularni korxonalar va tashkilotlarda o'z malakalarini oshirishlariga sharoitlar yaratib beradi.

Ishsizlarni kasbga o‘qitish va qayta o‘qitishning samarasini oshirish maqsadida hududlar kesimida 217 ta bazaviy kasb-hunar kollejlari va ushbu kollejlarda ishsizlarni kasbga tayyorlashning 100 ta yo‘nalishi aniqlab olindi¹⁹.

Ishchi kuchi bozori talablari asosida o‘rta ta‘lim muassasalarida yangi ixtisosliklar kiritish yoki ayrim ixtisosliklardan voz kechish zamirida ham bitiruvchilarni ish bilan band etish masalasi yotibdi. Respublikamizda bir qancha yo‘nalishlarda o‘qishni tamomlagan yoshlarni ishga joylashtirish koeffitsienti nisbatan pastligi sababli, ushbu mutaxassisliklarga o‘quvchilar qabul qilish rejasi ancha kamaytirildi. Xizmat ko‘rsatish va servis sohasida yosh mutaxassislarga talab ortayotgani uchun “Kompyuter savodxonligi”, “Umumiy ovqatlanishni tashkil etish”, “Maishiy gaz va elektr jihozlarini ta‘mirlash”, “Inqirozga qarshi boshqaruv” kabi o‘nga yaqin yangi yo‘nalishlar kiritildi.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekistonda ishchi kuchi bandligini ta‘minlash borasidagi ishlar va ularning ahamiyati”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida mamlakatimizda ishchi kuchi bandligini ta‘minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tahlil qilingan. Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish va yoshlar bandligini ta‘minlashning davlat siyosatini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Yoshlar mehnat faoliyatining boshlanishi ularning hayotida kasbga ko‘nikishlari bilan bog‘liq bo‘lgan o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi. Bunga eng avvalo, yoshlar kelib qo‘shiladigan mehnat jamoasidagi muhit, ijtimoiy-kasb qadriyatlarini, kasb faoliyatining tub jihatdan yangi turi, ishlab chiqarish munosabatlari xususiyatlari va boshqa omillar ta‘sir etadi.


Yoshlarda esa bo‘lajak ish o‘rni, mehnat sharoitlari va mazmuni, ayniqsa, ish haqi miqdoriga talab nihoyatda katta bo‘ladi. Bu – ish beruvchining yoshlarga ishchi kuchi sifatidagi bahosi bilan yoshlarning o‘z-o‘zini baholashlari o‘rtasida ziddiyatni yuzaga chiqaradi. Xuddi ana shu yoshlarning ish bilan bandligini ta‘minlashdagi eng jiddiy muammolardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizdagi demografik ko‘rsatkichlarning aholi yoshi bo‘yicha dinamikasiga ko‘ra keyingi 5 yil mobaynida mehnatga layoqatli yoshdan kichik va katta aholi soni dinamikasi o‘sish tendensiyasiga ega, ya‘ni 16 yoshgacha bo‘lganlar 2014-yil boshiga 32 foizga (2013-yildagi 30,1 foiz), 60 yoshdan oshganlar esa 2024-yil boshiga 9,4 foizga (2013-yil boshiga 6,3 foiz) oshgan (qarang: 5-rasm).

Statistik ma‘lumotlar asosida qilingan hisob kitoblarga ko‘ra, 2024-yil 1-yanvar holatiga aholining 32 foizi 16 yoshgacha bo‘lganlar tashkil qilishini va ularning salmog‘i yildan-yilga oshib borayotganligini inobatga oladigan bo‘lsak (2012-yilda 30,1 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda 32 foiz), ularni turli kasblarga tayyorlash va qayta tayyorlash borasidagi ishlarni yanada jadallashtirish kerak. Jumladan, ularning asosiy qismi umumta‘lim maktablarida ta‘lim va tarbiya olayotganlarini inobatga olib, ushbu muassasalarda to‘garaklar faoliyati yaxshi yo‘lga qo‘yish orqali ularni “Mental arifmetika”, tillar bo‘yicha (rus, tili, ingliz tili va boshqalar) to‘garaklarida bolajonlar aqliy salohiyatlari va til bo‘yicha

¹⁹ O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ma‘lumotlari.

dastlabki bilimlari berib kelinmoqda. Bu esa ular uchun kasb-hunarga o‘rgatishning dastlabki bosqichlari bo‘lib hisoblanadi.



5-rasm. Aholining yosh tarkibi bo‘yicha taqsimlanishi, (yil boshiga; foizda)²⁰

Mamlakatimizda ishchi kuchini takror ishlab chiqarish borasida yoshlarni «Future Skills Uzbekistan» va «Bir million dasturchi» loyihalari doirasida IT kasblariga hamda «Yoshlar 1+1» va «Tadbirkor ayol» loyihasi doirasida tadbirkorlik ko‘nikmalari va xorijiy tillar bo‘yicha o‘qitishga jalb qilinmoqda.

Ishchi kasblar bo‘yicha kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish, yoshlar va xotin-qizlarda zamonaviy kasb va tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida vazirlik tasarrufida 16 ta «Ishga marhamat», band bo‘lmagan aholiga xizmat ko‘rsatuvchi «Monomarkaz», 59 ta tuman va shahar kasb-hunarga o‘qitish markazlari, 136 ta mahallada kasb-hunarga o‘qitish maskanlari faoliyati yo‘lga qo‘yilgan.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, yuqori malakaga ega bo‘lgan kadrlar ishchi kuchi bozorida yuqori imkoniyatga ega bo‘ladilar. Shu bilan birga, statistik ma’lumotlardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, ishsizlarning asosiy qismini malakasi va bilim darajasi past bo‘lgan ishchi kuchi tashkil etadi.

Mamlakatimizda “Yoshlar: 1+1” dasturi doirasida ishsiz va uyushmagan yoshlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitish tashkil etilmoqda. “Yoshlar: 1+1” dasturi doirasida ishsiz va uyushmagan yoshlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka

²⁰ O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

o'qitish tashkil etilmoqda. «Har bir tadbirkor – yoshlarga madadkor» tamoyili asosida 1 nafar tadbirkorga 1 nafardan ishsiz yoshni biriktirish tashabbusi ko'plab tadbirkorlarimiz tomonidan faol qo'llab-quvvatlandi. Ushbu dastur doirasida 2021-yilda kamida 500 ming nafar yoshlar ish bilan ta'minlandi.

2021 yilning sentyabr oyidan boshlab Iqtisodiyot va moliya vazirligi subsidiya.mf.uz maxsus elektron subsidiyalar portalini ishga tushirgan. Unda har bir yo'nalish bo'yicha davlat byudjetidan to'lab beriladigan yoshlarga ajratiladigan subsidiya va kompensatsiyalar haqida ma'lumot olish mumkin. Jumladan:

— Yoshlarni tadbirkorlikka va kasb-hunarga o'qitish bo'yicha nodavlat ta'lim tashkilotlariga sarflangan xarajatlarning 75 foizigacha qismini (bir oy uchun BHMning 4 baravarigacha, ikki oy uchun 8 baravarigacha, ikki oydan ortiq 12 baravarigacha) qoplab berish;

— «Yoshlar daftari»ga kiritilgan yoshlarga urug'lik va ko'chatlar sotib olish uchun (BHMning 8 baravarigacha) subsidiya ajratish;

— mamlakatimizdagi OTMlarda ta'lim olayotgan "Temir daftar"ga kiritilgan oilalar farzandlarining to'lov-kontrakt summasining 50 foizigacha (BHMning 50 baravarigacha) to'lab berish;

— yoshlarning iste'dodlarini qo'llab-quvvatlash, besh muhim tashabbusni ro'yobga chiqarish va uning doirasidagi tadbirlarni moliyalashtirish;

— «Yoshlar daftari»ga kiritilgan yoshlarga tadbirkorlik faoliyati hamda o'zini o'zi band qilish maqsadida noturar joyning 12 oygacha ijara xarajatlarni qoplab berish;

— «Yoshlar daftari»ga kiritilgan yoshlarga tadbirkorlik faoliyatini boshlash hamda o'zini o'zi band qilishga zarur bo'lgan asbob-uskunalar va mehnat qurollarini xarid qilish uchun subsidiya ajratish;

— haydovchilik kurslarida o'qish va boshqalar.

Dissertatsiyaning **“Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish va bandligini ta'minlash istiqbollari”** deb nomlangan beshinchi bobida Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish va bandligini ta'minlashning xorij tajribasi tahlil qilingan. Xorijiy migrantlarning ishchi kuchi resurslarini takror ishlab chiqarishdagi ahamiyati belgilab berilgan. Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish va bandligini ta'minlashning rivojlanish istiqbollari belgilab berilgan.

Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish va bandlikni ta'minlash zamonaviy jamiyatlar va iqtisodiyotlar uchun o'ta muhim masalalardan biridir. Chunki ishchi kuchi mamlakatning asosiy resursi hisoblanadi va iqtisodiy rivojlanish hamda barqarorlikda asosiy rol o'ynaydi. Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish tushunchasi avvalo, aholining mehnatga qobiliyatli qismi muntazam ravishda iqtisodiyotga qo'shib, yangi avlod mehnatkashlarini tayyorlash jarayoniga ishora qiladi. Bu jarayon, nafaqat mehnat bozorining talabini qondirish uchun muhim, balki iqtisodiy o'sish va farovonlikni saqlash uchun ham zarurdir. Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish va bandlik o'rtasidagi uzviy bog'liqlik ko'pgina iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy omillar bilan belgilanadi, jumladan ta'lim tizimi, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, gender masalalari va demografik o'zgarishlar.

Jamiyatda ishchi kuchini takror ishlab chiqarish ikki asosiy omil orqali amalga oshadi. Birinchisi – tabiiy demografik jarayonlar, ya'ni tug'ilish va o'lim darajasi.

Aholining tug'ilishi orqali yangi avlod dunyoga keladi, ular esa keyinchalik iqtisodiy faol aholi qatoriga qo'shiladi. Ikkinchisi esa ijtimoiy omillar, ya'ni ta'lim tizimi, malaka oshirish kurslari, ijtimoiy himoya tizimlari va bandlikni qo'llab-quvvatlash siyosatlari orqali yangi avlodning iqtisodiyotda faol ishtirokini ta'minlash.

Quyida mamlakat miqyosida iqtisodiy faol aholi soniga ta'sir etuvchi demografik va ijtimoiy omillar: aholi soni (ming kishi), maktab/kollej(litsey) bitiruvchilari soni (ming kishi), OTM bitiruvchilari soni (ming kishi), ishsizlar soni (ming kishi) kabi omillar tanlab olingan.

Ko'p omilli ekonometrik modelni qurishda natijaviy va ta'sir etuvchi omillar sifatida quyidagi belgilanishlar kiritildi:

Natijaviy omil:

(y) – Iqtisodiy faol aholi soni (2000–2023-yillar, ming kishi);

Ta'sir etuvchi omillar:

x_1 – Aholi soni (2000-2023-yillar, ming kishi);

x_2 – maktab/kollej(litsey) bitiruvchilari soni (2003-2023-yillar, ming kishi);

x_3 – OTM bitiruvchilari soni (2003-2023-yillar, ming kishi);

x_4 – ishsizlar soni (2000-2023-yillar, ming kishi);

O'zgaruvchilarning o'lchov birliklari turlicha bo'lganligi uchun hamda ko'p omilli ekonometrik modelning interpretatsiyasini yaxshiroq tushuntirish uchun Y omil qiymatlarini natural shaklda logarifmlab korrelyatsiya matritsasini tuzamiz (qarang: 5-jadval), korrelyatsiya matritsasi – omillar o'rtasidagi juft korrelyatsiya koeffitsientlarini aks ettiruvchi matritsa hisoblanadi.

5-jadval

Korrelyatsiya matritsasi²¹

	ln_act~e	popula~n	school	univer	unempl~d
ln_active	1.0000				
population	0.9639	1.0000			
school	0.8732	0.8196	1.0000		
univer	0.8925	0.8847	0.9035	1.0000	
unemployed	0.8953	0.7860	0.7621	0.7238	1.0000

Mazkur 5-jadvaldan ko'rish mumkinki, xususiy korrelyatsiya koeffitsiyentlari - bu natijaviy omil (lny) va unga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi bog'lanishlar zichligini ko'rsatadi. Demak, xususiy korrelyatsiya koeffitsiyentlari natijaviy omil (lny) va ta'sir etuvchi omillar o'rtasida zich bog'lanishlar mavjudligini ko'rsatmoqda, ya'ni xususiy korrelyatsiya koeffitsiyentlarining qiymatlari 0.7 dan katta va ularni ko'p omilli modelga kiritish mumkin. Ammo, amalga oshirilgan hisob - kitob natijalariga ko'ra, yuqorida bayon etilayotgan ta'sir etuvchi omillarning o'zaro juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari ($r_{x,y}$) qiymatlarining ayrimlari 0.7 dan yuqori. Bundan ko'rinadiki, tanlangan omillar o'rtasida multikollinearlik muammosi mavjud. Bu yerda eng muhim holat bo'lib, ta'sir etuvchi omillar bir-biri bilan zich bog'lanmasligi kerak. Ya'ni, ta'sir etuvchi omillar o'rtasida multikollinearlik mavjud bo'lmasligi lozim. Agar ikkita ta'sir etuvchi omil o'rtasida

²¹ Muallif ishlanmasi

juft korrelyatsiya koeffitsiyenti qiymati 0.7 dan katta bo'lsa, multikolleniarlik muammosi vujudga keladi.

Tahlilni amalga oshirish uchun ko'p omilli regressiya tenglamasini tuzamiz, bunda y va x lar o'rtasidagi bog'lanishni to'g'ri chiziqli ($\ln y = a_0 + a_1 \ln x_1 + a_2 \ln x_2 + a_3 \ln x_3 + a_4 \ln x_4 + \varepsilon_i$) deb faraz qilamiz a_0, a_1, a_2, a_3 , va a_4 parametrlarni aniqlaymiz.

$$a_0 = -3,98; a_1 = 0,76; a_2 = 0,01; a_3 = 0,002; a_4 = 0,03$$

6-jadval

Ko'p omilli ekonometrik modelning hisoblangan parametrlari²²

Linear regression					Number of obs =	21
					F(4, 16)=	212.07
					Prob > F =	0.0000
					R-squared =	0.9847
					Root MSE =	.02045
ln_active	Coef.	Robust Std. Err.	t	P>t	[95% Conf. Interval]	
ln_population	.7643134	.1038845	7.36	0.000	.5440881	.9845388
ln_schoolcollage	.0047507	.0014002	3.39	0.004	.0017824	.0077189
ln_HEI	.0020392	.0023135	0.88	0.391	-.0028652	.0069436
ln_unemployment	.0343819	.006193	5.55	0.000	.0212534	.0475104
_cons	-3.980514	1.750715	-2.27	0.037	-7.691864	-.2691651

Shunday qilib, korrelyatsion bog'lanish regressiyasining to'g'ri chiziqli tenglamasi quyidagi ko'rinishni oladi:

$$\ln(Y_x) = -3,98 + 0,76 \ln x_1 + 0,01 \ln x_2 + 0,002 \ln x_3 + 0,03 \ln x_4 \quad (1)$$

Bu yerda a_0, a_1, a_2, a_3, a_4 regressiya koeffitsiyentlari natijaviy belgi (Y) bilan ta'sir etuvchi omil belgi (x) o'rtasidagi bog'lanishni belgilab beradi. Ushbu ekonometrik modelda bog'liq o'zgaruvchi va mustaqil o'zgaruvchilar natural logarifmlangan. Bu holat *semi-log model* deb ataladi.

Bu holatda regressiya tenglamasining koeffitsientlari mustaqil o'zgaruvchilar 1 foizga o'zgarsa bog'liq o'zgaruvchi necha foizga o'zgaradi degan savolga javob beradi.

$a_1 = 0,76$. Bu koeffitsientning ma'nosi shuki, aholi soni 1 foizga oshganda iqtisodiy faol aholi soni 0,76 foizga oshadi. Bu ta'sir ijobiy, ya'ni aholi sonining ortishi iqtisodiy faol aholi sonini oshirish tendensiyasiga ega.

$a_2 = 0,01$. Bitiruvchilar sonining 1 foizga oshishi iqtisodiy faol aholi sonini 0,01 oshiradi. Bu ham ijobiy ta'sirni ko'rsatadi, ya'ni maktab yoki kollej bitiruvchilari iqtisodiy faol aholiga kirishga moyil.

$a_3 = 0,002$. Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilar sonining 1 foizga oshishi iqtisodiy faol aholi sonini 0,002 oshiradi.

$a_4 = 0,03$. Ishsizlar soni 1% ga ohsa, iqtisodiy faol aholi 0,03% ga oshadi. Bu kutilmagan holatdek tuyulishi mumkin, ammo ishsizlar ham iqtisodiy faol aholiga kiradi, chunki ular mehnat bozorida faol hisoblanadi.

²² Muallif ishlanmasi

Constant = -3,98 barcha mustaqil o'zgaruvchilar qiymati 1 bo'lganda (nazariy jihatdan), iqtisodiy faol aholi sonining logarifmik qiymati bo'ladi ($e^{(-3,98)} \approx 0,0187$ ming kishi ≈ 19 kishi. Ammo bu amaliy jihatdan kam qo'llaniladi, chunki bu o'zgaruvchilarning barchasi 1 bo'lishi real hayotda deyarli mumkin emas.

Tahlil uchun o'rganilayotgan variatsiya qatorida qoldiq avtokorrelatsiyani Darbin-Uotson (DW) mezonini bo'yicha baholash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:


$$DW = \frac{\sum (e_i - e_{i-1})^2}{\sum e_i^2}; e_i = y_i - y_x \quad (2)$$

Darbin-Uotson (DW) mezonini $0 \leq DW \leq 4$ oraliqda yotadi.

Agar $DW < 2$ bo'lsa, qoldiqlar qatori ijobiy avtokorrelatsiyaga ega agar $DW > 2$ bo'lsa salbiy avtokorrelatsiyaga ega. DW mezonini 4 ga yaqin bo'lsa salbiy avtokorrelatsiya mavjud, DW mezonini 0 ga yaqin bo'lsa ijobiy avtokorrelatsiya mavjudligini bildiradi. Biz tuzgan ekonometrik model asosidagi hisob-kitoblarga ko'ra $DW = 0,41$. Demak, qoldiqlar qatori ijobiy avtokorrelatsiyaga ega.

Agar $DW < 2$ bo'lsa, qoldiqlar qatori ijobiy avtokorrelatsiyaga ega agar $DW > 2$ bo'lsa salbiy avtokorrelatsiyaga ega. DW mezonini 4 ga yaqin bo'lsa salbiy avtokorrelatsiya mavjud, DW mezonini 0 ga yaqin bo'lsa ijobiy avtokorrelatsiya mavjudligini bildiradi. Biz tuzgan ekonometrik model asosidagi hisob-kitoblarga ko'ra $DW = 0,99$. Demak, qoldiqlar qatori ijobiy avtokorrelatsiyaga ega, ya'ni, qoldiqlar (xatoliklar) vaqt bo'yicha bog'langan.

Shuningdek, bunday tuzilgan ekonometrik model yordamida biz prognoz qilish imkoniyatiga egamiz. Masalan, iqtisodiy faol aholi biz tanlab olgan ta'sir etuvchi omillar ta'sirida emas faqatgina vaqt omiliga bog'liq ravishda ortib boradi deb hisoblasak, buni grafikda ifodalanishi quyidagicha bo'ladi (qarang: 6-rasm).



6-rasm. Iqtisodiy faol aholi sonining 2025-2030-yillarga prognoz (asosiy, pessimistik va optimistik) qiymatlari ²³

²³ Muallif ishlanmalari asosida
28

Demak, 2024-2030-yillarda mehnatga layoqatli yoshdagi aholi sonining prognoz ko'rsatkichi quyidagicha bo'lishini ko'rsatmoqda (6-rasm). Prognozning ishonchlilik darajasi 97% deb baholandi. Ammo, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar dinamikasi doim ham chiziqli bo'lavermaydi.

Tahlil natijalariga ko'ra, iqtisodiy faol aholi soniga ta'sir etuvchi 5ta omil tanlab olingan bo'lib, ular: x_1 - aholi soni; x_2 - maktab/kollej(litsey) bitiruvchilari soni; x_3 - OTM bitiruvchilari soni; x_4 - tadbirkorlik subyektlari soni, x_5 - ishsizlar soni. Ushbu ma'lumotlar asosida ko'p omilli ekonometrik model tuzilgan bo'lib, ushbu modelning ahamiyatliligi, ishonchliligi, tanlab olingan ta'sir etuvchi omillarning natijaviy omilga bog'liqlik darajasi, ahamiyatliligi hamda tuzilgan modeldagi xatoliklar darajasi, qoldiqlarning normal taqsimotga bo'ysunishi bir qancha mezonlar asosida tekshirilgan.

XULOSA

Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish va bandligini ta'minlashning nazariy asoslarini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalaridan quyidagi xulosalarga kelingan:

1. Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish borasida ayrim iqtisodchi olimlar o'zlarining fikrlari aytib o'tishgan lekin, ularning fikrlari bir tomonlama bo'lib, unda ishchi kuchini takror hosil qilishga tor ma'noda qaralgan. Bir qator mualliflarning fikriga ko'ra, ishchi kuchini takror ishlab chiqarish inson va uning mehnat faoliyatidan kelib chiqib, uning ishini davom ettirish lozimligini hisobga olishi kerak.

2. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ko'p hollarda ichki iqtisodiy fan ishchi kuchidan samarali foydalanish muammolarini hal qilish bilan shug'ullangan, lekin alohida ishchi kuchini shakllantirishni e'tibordan chetda qoldirgan. Zamonaviy mehnat iqtisodiyotida ishchi kuchini takror ishlab chiqarishning asosiy rolini himoya qilib, ishchi kuchining sifat darajasini shakllantirishni ko'rib chiqish dolzarb deb hisoblayman.

3. Ishchi kuchi resurslari ham takror ishlab chiqarish fazalari: ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash, iste'mol fazalaridan birin-ketin bosib o'tish orqali amal qiladi va u har bir bosqichda o'z vazifalarini bajaradi.

4. Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish va mutaxassislar tayyorlash dasturi hamda ishchi kuchi bozoridagi talab o'rtasida nomutanosiblik mavjud. Bu masalaning yechimi respublika kambag'allikni qisqartirish va bandlik organlari, korxonalar va tashkilotlar hamda o'quv yurtlari tomonidan bir kelishuvga erishishdir.

5. Yoshlarni kichiklik vaqtidan boshlab oilaviy tadbirkorlikni (kasanachilikni) rivojlantirish dasturlari doirasida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarga biriktirish va ularning kasb-hunarlarini o'rganishlarini ta'minlash, lozim hollarda ularga subsidiyalar yoki imtiyozlar berish orqali qo'llab-quvvatlash maqsadga muvofiq.

6. Yoshlarni ish bilan ta'minlashni yaxshilashning qo'shimcha imkoniyatlarini nodavlat tashkilotlarini kadrlarni tanlash va ularni ish bilan ta'minlashda faol qatnashishga da'vat etish orqali oshirish mumkin.

7. Mamlakatimiz aholisi salmog'ida yoshlarning ulushi ko'pligi sababli ishchi kuchi resurslari tarkibiga kirib keluvchilarning katta qismini yoshlar tashkil qiladi. Respublikamizda aholining tez sur'atlar bilan ko'payishi natijasida hozirgi kunga kelib, hududiy demografik jihatdan zichlashib bormoqda. Oqibatda yoshlarning, ayniqsa, qishloq yoshlarining ish bilan bandligini ta'minlashda jiddiy muammolarni vujudga keltirmoqda. Yoshlar o'rtasida ishsizlikni kamaytirish, ularning ishchi kuchi bozoridagi xatti-harakati qator jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy yechimini kutayotgan masalalardan biri hisoblanadi.

8. O'zbekiston aholisi tarkibida yoshlarning salmog'i yuqori ekanligi bilan ajralib turadi. Ishchi kuchi bozorida yoshlarning ish bilan bandligi va ularni kasbga tayyorlash ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan alohida ahamiyatga ega. Bugungi globallashuv sharoitida dunyoning barcha mamlakatlarida yoshlar orasida ishsizlikning yuqori darajada ekanligi kutilmoqda. Yoshlar ishchi kuchi bozorini tartibga solish va qishloq joylarda ishsizlikni va avvalo 30 yoshgacha bo'lgan shaxslar orasida bartaraf etish masalalari yetarlicha o'rganilmagan. Shu munosabat bilan o'tkazilgan tadqiqotlar quyidagilarni tasdiqlashga imkon beradi:

qishloq yoshlari ishsizligi darajasining yuqori bo'lishi ko'proq ishchi kuchini dastlabki kasbga tayyorlash tizimi (shu jumladan, kasbga yo'naltirish)ni takomillashmaganligi,

ularni ishga joylashishining past darajasi va operativ emasligi,

ish beruvchilarga yosh kadrlar uchun ish o'rinlarini tahlil qilish va saqlab qolishga hamda yaratishga moddiy rag'bat va imtiyozlar yo'qligi,

qishloq yoshlari tadbirkorligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlanmaganligi,

yoshlarda malaka yetishmasligi, ishchi kuchi bozori infratuzilmasining yaxshi rivojlanmaganligi;

istiqbolda ish bilan bandlikni rivojlantirish bo'yicha ilmiy jihatdan asoslangan dasturlarning ishlab chiqilmaganligi bilan belgilanadi.

9. Yoshlarni ishchi kuchi bozoriga mos mutaxassis sifatida takror ishlab chiqarish va kasb-hunarlariga tayyorlashni tizimli yo'lga qo'yish, ularni munosib ish o'rinlari bilan ta'minlash orqali ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy muammolar o'z yechimini topadi. Buning uchun davlat va nodavlat ta'lim muassasalari hamda kasb-hunar ta'limi markazlari faoliyat yuritmoqda.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ
СТЕПЕНЕЙ DSc.03/30.01.2021.I.16.03 ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

МАМАРАХИМОВ БЕКЗОД ЭРКИНОВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕОРЕТИЧЕСКОЙ ОСНОВЫ
ВОСПРОИЗВОДСТВА РАБОЧЕЙ СИЛЫ И ОБЕСПЕЧЕНИЯ
ЗАНЯТОСТИ**

08.00.01 - Экономическая теория

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора экономических наук (DSc)

Ташкент – 2025

Тема докторской диссертации (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии под номером B2024.3.DSc/Iqt1757.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-сайте Научного совета (www.tsue.uz) и Информационно-образовательном портале "Ziyonet" (www.ziyonet.uz).

Научный консультант: **Абдуллаев Суюн Артыкович**
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Гафуров Убайдулло Вахабович**
доктор экономических наук, профессор

Расулова Дилфуза Валиевна
доктор экономических наук, профессор

Куролов Кобилжон Кулманович
доктор экономических наук

Ведущая организация: **Ферганский государственный университет**

Защита диссертации состоится на заседании Научного совета № DSc.03/30.01.2021.I.16.03 по присуждению ученых степеней по экономическим наукам при Ташкентском государственном экономическом университете "___" _____ 2025 года в ___ часов. Адрес: 100003, г. Ташкент, ул. И. Каримова, 49. Тел.: (99872) 239-28-72; факс: (99872) 239-01-49, (99872) 239-43-51. e-mail: info@tsue.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (зарегистрирована под № ____). Адрес: 100003, г. Ташкент, ул. Ислама Каримова, 49. Тел.: (99871) 239-88-72; факс: (99871) 239-43-51. e-mail: info@tsue.uz.

Автореферат диссертации разослан "___" _____ 2025 г.
(Регистрационный протокол № ____ от "___" _____ 2025 г.).

С.К. Худойкулов
председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней,
д.э.н., профессор

Д.С. Насирходжаева
Ученый секретарь Научного
совета по присуждению ученых
степеней, д.э.н., профессор

У.В. Гафуров
председатель Научного семинара
при Научном совете по
присуждению ученых степеней,
д.э.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и необходимость темы диссертации. Страны мира рассматривают приоритетность воспроизводства рабочей силы и обеспечения занятости населения как фактор, который вносит большой вклад в экономическое развитие посредством развития системы образования. В зарубежных странах особое внимание уделяется реализации активных программ на рынке труда, то есть значительная часть ресурсов перераспределяется в пользу активных программ (от 0,4% ВВП в США и Канаде до 2% в Швеции), что объясняется рядом причин. Взаимосвязанные экономические и геополитические кризисы последних лет создали неопределенные и разнообразные перспективы для воспроизводства рабочей силы, расширив разрыв между развитыми и развивающимися экономиками и рабочими. Несмотря на то, что все более растущие экономики начали восстанавливаться после пандемии Covid-19 и связанных с ней ограничений, страны с низким и низким средним уровнем дохода сталкиваются с высокой безработицей, в то время как страны с высоким уровнем дохода обычно сталкиваются со сложными рынками труда.

В условиях глобализации в мире проводится множество научных исследований, направленных на проблемы рынка рабочей силы, в частности, воспроизводства рабочей силы и обеспечения занятости. В условиях глобализации решение проблемы дефицита и избытка на рынке труда рассматривается как позитивный механизм создания возможностей для стремления к повышению высокой заработной платы и материального благосостояния. В частности, смягчение проблемы воспроизводства и повышения качества рабочей силы в стране, прибытие вернувшихся из-за рубежа эмигрантов с опытом и навыками, расходование их заработанных доходов в форме внутренних инвестиций, краткосрочные, долгосрочные, макроэкономические и социальные эффекты денежных переводов имеют важное значение в экономике страны.

В Новом Узбекистане особое внимание уделяется вопросам обеспечения стабильной экономики, воспроизводства и занятости рабочей силы. В нашей стране также проводится ряд реформ по обеспечению эффективности воспроизводства рабочей силы, роль которых в обеспечении конкурентоспособности национальной экономики неопределима. В частности, постановления Президента Республики Узбекистан "О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования," "О мерах по коренному совершенствованию системы общего среднего, среднего специального и профессионального образования" и Указ "О Государственной программе "Молодежь - наше будущее" являются яркими примерами этого. Учитывая, что в настоящее время в нашей стране молодежь в возрасте до 30 лет составляет более 19 миллионов человек, или 55 процентов населения, в результате деятельности этих учреждений особое внимание уделяется качественному образованию, профессиональной подготовке и обеспечению занятости около 1 миллиона молодых людей, ежегодно выходящих на рынок труда.

Указы Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № ПФ-60 «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы», от 27 июня 2018 года № ПФ-5466 «О Государственной программе «Молодежь – наше будущее», от 14 февраля 2025 года № ПП-62 «О дополнительных мерах по развитию молодежного предпринимательства и обеспечению занятости населения», от 30 августа 2022 года № ПП-366 «О мерах по сокращению доли неформальной занятости и формированию баланса трудовых ресурсов на основе современных подходов», от 11 августа 2020 года № ПП-4804 «О привлечении малообеспеченных и безработных граждан к предпринимательству, повышении их трудовой активности и «О дополнительных мерах по профессиональной подготовке и обеспечению занятости населения», Постановления Кабинета Министров Республики Узбекистан от 7 июля 2023 года № 279 «О мерах по В целях реализации программы «20 тысяч предпринимателей – 500 тысяч квалифицированных специалистов», № 23 от 18 января 2021 года «Об утверждении Концепции развития государственной молодежной политики в Узбекистане до 2025 года», № 877 от 28 октября 2017 года «Об утверждении Положения о порядке формирования государственного заказа на создание рабочих мест и подготовку кадров с учетом текущих и перспективных потребностей рынка труда» и других нормативно-правовых актов в данной сфере данная научно-исследовательская работа в определенной мере послужит реализации задач, изложенных в

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. "Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики."

Обзор международных научных исследований по теме диссертации²⁴. Исследования по воспроизводству рабочей силы и обеспечению занятости проводятся ведущими мировыми высшими учебными заведениями, научными центрами и престижными международными организациями, в том числе Международной организацией труда (<https://www.ilo.org>) Комиссией по равным возможностям занятости (ЕЕОС), Американским советом по образованию (<https://www.acenet.edu>), Бюро статистики труда, Бюро статистики труда, Динамикой местной занятости, Базой данных членства и охвата профсоюзов, Обследованием текущего населения (CPS), Школой политических исследований Эндрю Янга, Государственным университетом Джорджии, Университетом Тринити, Институтом экономики труда ИЗА (<https://www.iza.org/>), Манчестерским университетом (<https://www.manchester.ac.uk>), Университетом Теннессе (<https://tennessee.edu>).

В результате научных исследований, проводимых в мире, предоставлена информация о мировых тенденциях на рынке труда с целью воспроизводства рабочей силы и проанализированы различия в уровнях занятости между

²⁴ Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации подготовлен на основе www.worldbank.org; www.worldbankgroup.org; <http://www.imf.org>; <http://www.miga.org>; <https://unecon.ru>; <https://hsem.susu.ru/es>; <http://www.fa.ru>; www.mgu.ru; www.ey.com; www.deloitte.com; <https://tfi.uz/en>; <http://tsue.uz>; <https://ifmr.uz> и других источников

странами (исследование ОЭСР: Biennial Employment Outlook Report); путем изучения взаимосвязи экономического роста и занятости изучено влияние инвестиций в них, внедрения инноваций на безработицу (Всемирный банк); влияние глобализации на жизнь рабочей силы и улучшение условий труда (Международная организация труда); учитывая, что большую часть вступающих в рабочую силу составляет молодежь, проводятся исследования по созданию возможностей для безработной молодежи в микрорайонах для начала предпринимательской деятельности путем обучения и переподготовки по современным профессиям, востребованным на рынке труда (Министерство по сокращению бедности и занятости населения Республики Узбекистан).

В результате исследований, проводимых в мире по совершенствованию теоретических основ воспроизводства рабочей силы и занятости, проведены следующие работы: изучены научно-методологические основы воспроизводства рабочей силы и использования женского труда (Берлинский университет имени Гумбольдта, Германия); Благополучие населения и воспроизводство рабочей силы: влияние государственной политики на структуру воспроизводства (Университет Квинсленда, Австралия); Благополучие населения и воспроизводство рабочей силы: значение государственной политики на структуру воспроизводства (Копенгагенский университет, Дания); обоснованы управление человеческими ресурсами и организация воспроизводства человеческого капитала (Российский государственный экономический университет им. Г.В. Плеханова, Россия); рынок труда, экономика труда; теория и практика, воспроизводство рабочей силы и занятость (Ташкентский государственный экономический университет, Узбекистан); проводятся исследования человеческого фактора и путей его активизации в условиях формирующейся рыночной экономики (Национальный университет Узбекистана, Узбекистан).

Степень изученности проблемы. Рынок труда и различные аспекты занятости изучались многими зарубежными учеными, в том числе А.Смитом, Д.Рикардо, К.Марксом, А.Маршаллом, Дж.М.Кейнсом, М.Фридменом, Т.Вебленом, Э.Хансеном, П.Самуэльсоном и другими. В зарубежной литературе труды таких ученых, как А.Сен, М. ул Хак, С.Алкир, С.Фукуда-Парр, Г.Ранис, Ф.Стюарт, И.Робинс, С.Ананд и других изучали человеческий потенциал²⁵.

В странах Содружества Независимых Государств научные исследования по человеческому потенциалу, организационным формам формирования и развития человеческого капитала проводили такие ученые, как С. Г. Струмилин, А. Э. Котляр, Д. Н. Карпухин, В. А. Май, Р. И. Капелюшников, А. И. Добрынин, С.А. Дятлов, В.Э. Сактоев, В.С. Баженова, М.М.Крицкий, Н.Я.Синицкая, Г.Б.Солнцева, Г.Л. Смолян, И.В.Соболева²⁶. Также Е.Н.Дубровская, А.А.Ананских, Л.П.Горюн,

